

## **ABDULVOHID MUNZIM VA JADIDCHILIK HARAKATI**

**Manzarov Yusuf Xurramovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadidchilik harakatidagi ma’naviyat, o‘z davrining eng ilg‘or g‘oyalarini ilgari surish bilan birga ma’rifatni rivojlantirishga harakat qilgan Munzim va uning faoliyatiga oid ishlar bayon etiladi. U ozodlikka, mustaqillikka urushlar, qon to‘kish bilan erishib bo‘lmasligini, savodlilik, ma’rifat bilan, qaramlikning kelib chiqish sabablarini o‘rganishni tushuntirish orqali erishish, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni vujudga keltirish, bu esa uning taraqqiyotiga olib boruvchi asosiy omil ekanligini ilgari surdi va jadidchilik harakati namoyandalari bilan birgalikda faoliyat olib borganligini manbalarga tayangan holda bayon etiladi.

**Kalit so‘z va iboralar:** taraqqiyparvar, qozi, “Tarbiyai atfol”, “Buxoroi sharif”, xattotlik, “Qur’oni Munzim”.

Buxoro jadidchilik harakatining yuksalishida katta hissa qo‘sghan va birinchilar qatorida yangi usuldagagi maktabni ochgan Munzim (Abdulvohid Burhonzoda)dir. Munzim 1877-yilda Buxoroda tug‘ildi. U dastlabki ma’lumotni Buxoro madrasalarida oldi. Yoshligida otasidan yetim qolgan Abdulvohid o’sha davrning mashhur bibliofili Sharifjon Maxdum – Sadr Ziyo xonadonida tarbiya topdi. Bu xonadonda buxorolik ziyorilar tez-tez uchrashib, ilmiy bahs-munozaralar tashkil etar edilar. Ilmga chanqoq Munzim ana shu xonadonda Sadreddin Ayniy bilan uchrashdi va bu uchrashuv ularni bir umrga do‘stlashtirdi. Shu o‘rinda Sharifjon Maxdum – Sadr Ziyo to‘g‘risida batafsil ma’lumot berib o‘tsak. Buxoroda vujudga kelgan jadidchilik harakatini qo‘llab-quvvatlagan davlat amaldorlaridan biri Sadr Ziyo (Sharifjon Maxdum) bo‘lib, u 1865-yil 24-fevralda hozirgi Samarqand viloyati Paxtachi tumaniga qarashli Ziyovuddin hududida tavallud topgan. Muhammad Sharif

Sadr Ziyo otasi domla Abdushukur (1817/18- 1889) va o’sha davrning taraqqiyatining shoirlaridan Iso Maxdum (1829-1898) dan dastlabki diniy ta’limni olib, keyinchalik madrasaga o‘qishga kirgan. Sadr Ziyo o‘z davrining donishmand va hur fikrli kishilari Mirzo Narzullo Lutfiy, Abdulmajid Zufunun, Sodiq Gulxaniy, Hamidbek Tahsin, Qori Abdukarim Ofarin (Do‘zaxiy), Mirzo Azim Somiy kabilalar bilan hamfikr bo‘lib, ular bilan doimiy yig‘ilib turishgan. Jamiyatning suhbatlariga Ahmad Donish ham yashirincha kelib turgan. Sadr Ziyo 1900-yilda Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoye” [1, B.7] nomli asarining qo‘lyozmasini topib, uni ko‘chirib berishni Mirzo Abdulvohid (Munzim)ga topshirgan. Uning sa’y-harakatlari natijasida bu nodir asar kelgusi avlodlar uchun saqlab qolingan. Sadr Ziyo 26 yoshida madrasa ta’limini tamomlagach, Amir Abdulahadxon tomonidan davlat ishlariga jalb etilib, 1893-yil 9-mayida Xayrobod tumaniga qozi etib tayinlangan va to 1920-yil sentyabrgacha Peshku, Vang‘oze, G‘ijduvon, Yangiqo‘rg‘on, Chahorjo‘y, Qarshi, Shahrisabz kabi tumanlarda qozilik qilgan. Amir Olimxon 1917-yil 29-martida Sadr Ziyoni qozikalon etib tayinlaydi. 1917-yilning 7-aprelida amir tomonidan islohot farmoni e’lon qilingandan keyin amirlikda vujudga kelgan eskicha qarashdagi mullalarning norozilik harakati davrida Sadr Ziyo 1917-yili jadidchilikda ayblanadi va o’sha yilning 9-aprelida ularning murojaati bilan qozikalonlikdan olib tashlanadi. Oradan bir necha oy o’tgach, 1917-yil 10-oktyabrda amir Sadr Ziyoni Qarshiga qozi etib tayinladi. Uning qoziligi 1918-yilning 3-apreli gacha davom etdi. Shu kuni Sadr Ziyo qamoqqa olindi. 70 kunlik hibsdan ozod etilgan Sadr Ziyo 1918-yilning iyunida Shahrisabzga qozi etib tayinlandi. 1920-yilda Buxoroda sovet hokimiyyati o‘rnatilgach, BXSR hukumatida mas’ul lavozimlarda xizmat qildi. Sadr Ziyo 1920-yil 2-sentyabrdan Buxoro Xalq Jumhuriyatining Vaqf ishlari boshqarmasi xizmatchisi, shariat boshqarmasi raisi o‘rinbosari va Ibn Sino nomli kutubxona xodimi kabi vazifalarda ishladi. 1923-yilga kelib davlat ishlaridan chetlashtirilgan Sadr Ziyo ijod va yo‘qolgan asarlarini qayti tiklash bilan shug‘ullandi [2, B.56]. 1930-yilda Sovet hokimiyyati tomonidan Sadr Ziyo tuzumga qarshi chiqishda ayblanib, hibsga olindi va 1932-yil aprelida 67 yoshida qamoqxonada vafot etdi. Xulosa qilib aytganda, Buxoroning yirik amaldorlaridan Sadr Ziyo Buxoro jamiyatiga kirib

kelayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yangiliklarning foydali jihatlarini qabul qilib, mamlakatni rivojlantirish uchun foydalanishni lozim deb bildi. U Buxoro amirligida vujudga kelgan taraqqiyparvarlik harakatini har tomonlama qo'llab-quvvatladi, jadidlar bilan yaqin munosabatda bo'lib, ularning islohotchilik faoliyatiga xayrixohlik qildi. Abdulvohid Munzim Samarqandga borib, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan yangi usul maktablarida o'qitish tajribasini o'rganib kelgach, 1908-yilning oktyabrida Sadriddin Ayniy bilan hamkorlikda o'z uyida yangi usuldagagi maktabni ochdi [3, B.42]. S.Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kitobida ta'kidlanishicha, bu maktab 1908- yilning 23-oktyabrida Buxoroning “Darvozai Sallohxona” guzaridagi Mirzo Abdulvohidning hovlisida ochilib, 12 bola o'qitilgan. ularning bir qismi pullik, bir qismi esa tekinga o'qitiladi [4, B.23]. Xuddi shunday maktab Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li tomonidan qo'shni guzarda ham ochilgan edi [5, B.21]. Munzim o'z maktabi uchun S.Ayniy bilan birga o'quv qo'llanmalarni ham yaratdi. Ma'lum jaholatparastlarning ig'volari va yangilikka qarshi chiqishlari natijasida 1909-yil 26- sentyabrda Ostonaqul qushbegi, Baqoxo'ja qozikalon va Burhoniddin rais topshirig'i bilan Abdulvohid Munzim maktabi yopib qo'yiladi[6, B.9]. Abdulvohid Burhonov 1908-yilda Mukammil Burhonov, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar bilan birga (“Bolalar tarbiyasi”) nomli Buxoro jadidlarining ma'rifiy jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyatda Usmon Xo'ja, Muso Saidjonov faol qatnashdilar. Jamiyat a'zolarining soni 100 dan oshib, uni moddiy jihatdan Muhiddin Mansurov va Sadr Ziyo qo'llab-quvvatlab turdilar. Bu tashkilot buxorolik yoshlarni xorijga yuborib o'qitish, yangi usul maktablari uchun darslik, qo'llanmalar yaratish, xorijdagi o'qishga yuborilgan bolalarga moddiy ko'mak berish ishlari bilan shug'ullandi. Shu jamiyat ko'magida 1908-yilda Istanbulda 14 buxorolik va turkistonlik bola ta'lim oldi. Shu jamiyat ko'magida Turkiyada Abdurauf Fitratning bir qator asarlari chop etildi. Bu jamiyat a'zolari, jumladan, Munzim ham buxorolik ma'rifatparvar va ziyorilar o'rtasida ilg'or demokratik g'oyalarni targ'ib etib, xalqning siyosiy ongini uyg'otishda muhim rol o'ynadi. Munzim Buxoroning birinchi matbuot nashri “Buxoroi sharif” gazetasi tashkil topishining tashabbuskorlaridan biridir [7, N.48]. U

“Munzim” taxallusi bilan fors-tojik tilida yozgan she’rlarini shu gazetada bosib chiqardi. Gazetaning 1912-yilda chop etilgan 53-sonida uning “Vatan”, 59-sonida “To ba kay” (“Qachongacha”), “Maktab” she’rlari chop etilgan [8. B.31]. Bu she’rlarda jadidchilik harakati oldiga qo‘yilgan ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, bolalarimizning ilm o‘rganishi, milliy o‘zligini anglashi kabi g‘oyalar o‘z aksini topgan. Munzim xattotlik san’ati bilan ham shug‘ullangan va uni mukammal egallagan. S.Ayniyning maslahati bilan Ahmad Donish asarlarining qo‘lyozma variantlarini chiroyli xattotlik usulida yaratgan. Keyinroq esa o‘z uyida tipografiya tashkil etib, “Qur’oni karim”ni chop etgan va bu nusxa “Qur’oni Abdulvohidiy” hamda “Qur’oni Munzim” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Rossiyada 1917-yil fevral inqilobidan keyin va Buxoroda amir Olimxonning shu yili 7-apreldagi farmonidan so‘ng Buxoro jadidlari Abdulvohid Burhonov – Munzim boshchiligidagi eski-qadimchilarga va Fayzulla Xo‘jayev hamda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi yangi jadidlarga bo‘lindilar. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma’rifat bo‘lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafдори edilar. Bu guruhlar o‘rtasidagi ixtilof ancha kuchaygan edi. Masalan, amirning 1917-yil 7-apreldagi farmonini “Yosh buxoroliklar” keng xalq ommasiga tushuntirish uchun miting, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazishini A.Fitrat boshchiligidagi guruh a’zolari yoqlab chiqadi [9, B.12]. Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi guruh namoyishga qarshi bo‘ldi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida “Yosh buxoroliklar” partiyasi tuzilib, Munzim unga rais qilib tayinlandi. Buxoroda reaksiya va ta’qiblar kuchaygach, Munzim ham Toshkentga borib, “Uchqun” va “Qutulish” gazetalari bilan hamkorlik qildi. Uning qator she’rlari, jumladan, “Bayoni hol”, “Ey, mazlum Sharq” kabi ash’orlari ushbu gazetalarning sahifalarida chop etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir // Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi. Xalq so‘zi. 2020-yil 1-oktyabr, №207 (7709).
2. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. — Toshkent: Tafakkur, 2016.

3. Sadr Ziyo. Navodiri Ziyoiya. – Dushanbe: Adib, 1991.
4. Ayniy S. Kulliyot (Tanlangan asarlar). T. 1-15. — Dushanbe, 1958.
5. Edward A. Allworth. The Personal History of a Bukharan Intellectual: The Diary of Muhammad Sharif-I Sadr-I Ziya. — Brill: Leiden-Boston, 2004
6. Fish R., Xashim R. Glazami sovesti – Dushanbe: “Irfon”, 1978. S.53
7. Jamolova D.M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri- XX asr boshlari), tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2019. – B. 15.
8. Munavvar qori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
9. Muhammadjonova L.P., Alimova M.M. Buxoroda jadidchilik harakati tarixidan. – Buxoro: “Durdona”, 2019 – B. 48.